



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Ichki valyuta bozori sharhi

2026-yil I chorak yakuni bo'yicha



Kirish

2026-yilning I choragida ichki valyuta bozorida xorijiy valyuta taklifining o'sish sur'ati talabga nisbatan biroz yuqori shakllangan bo'lsa-da, talab omillarining asosiy qismi bo'lgan yuridik shaxslarning valyuta xaridi o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli ortishi fonida milliy valyuta almashuv kursida biroz pasayish tendensiyasi kuzatildi.

Bunda, iqtisodiy faollikning sezilarli darajada oshishi, shu jumladan, investitsiya va iste'mol faolligining kuchayishi import hajmlarining ortishiga sabab bo'ldi.

Xususan, tashqi savdo operatsiyalarini moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi yuridik shaxslar tomonidan xorijiy valyutaga talabning oshishiga olib keldi. Ayniqsa, ishlab chiqarish maqsadida tovar va xizmatlar, xalq iste'mol tovarlari hamda dori-darmon mahsulotlari importi korxonalarining xorijiy valyutaga bo'lgan ehtiyojini yanada oshirdi. Natijada, ichki valyuta bozorida ular tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab biroz oshib, bu o'z navbatida, valyuta kursi dinamikasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

Xorijiy valyutaga bo'lgan taklifning ortishi asosan eksport tushumlari, banklar tomonidan jalb qilingan tashqi qarzlilar va xalqaro pul o'tkazmalari hissasiga to'g'ri keldi. Ayniqsa, aholi tomonidan valyuta sotuvining yuqori sur'atlarda o'sishi bozorda qo'shimcha taklif bo'lib xizmat qildi.

Umuman olganda, mazkur jarayonlar keskin tebranishlarsiz kechib, almashuv kursining tashqi omillarga nisbatan moslashuvchanligi oshganligini namoyon etdi.


Ichki valyuta bozori sharhi

2026-yil I chorakda ichki valyuta bozorida xorijiy valyutaga bo'lgan umumiy taklif o'sish sur'ati talab o'sish sur'atiga nisbatan biroz yuqori shakllandi.


Xorijiy valyutaga bo'lgan talab **14,6 mlrd** AQSH dollarini (*keyingi o'rinlarda – dollar*) tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **24 foizga** oshdi.

Shuningdek, taklif hajmi (*Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini hisobga olmagan holda*) **12,2 mlrd** dollarga yetib, 2025-yilning I choragiga nisbatan **27 foizga** o'sdi.

1-rasm. Xorijiy valyutaga talab, mln dollarda



2-rasm. Subyektlar kesimida valyuta taklifi, mln dollarda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Markaziy bankning monetar oltin bilan bog'liq operatsiyalari hisobiga shakllangan qo'shimcha likvidlik neytrallik tamoyili doirasida valyuta va pul-kredit operatsiyalari orqali sterilizatsiya qilib borildi.

Yuridik shaxslarning valyutaga bo'lgan talabi o'sish sur'ati ularning valyuta taklifi o'sish sur'atidan sezilarli yuqori shakllandi.


2026-yilning yanvar-mart oylarida yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2025-yilning mos davriga nisbatan **23 foizga** o'sgan bo'lsa, ular tomonidan valyuta taklifi hajmi **11 foizga** oshdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport tushumlari hisobiga shakllanadigan valyuta taklifi ushbu davrda **19 foizga** oshib, **4,2 mlrd** dollarni tashkil etdi. Mazkur eksport tushumlarining **2,2 mlrd** dollari yoki **52 foizi** ichki valyuta bozorida sotildi (*2025-yilning mos davriga nisbatan 5 foiz yoki 107 mln dollarga ko'p*).

Shuningdek, chorak davomida ichki valyuta bozoriga **2,3 mlrd** dollarlik valyuta mablag'lari banklar tomonidan **xorijiy kreditlar** hisobidan sotildi (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65 foiz yoki 904 mln dollarga ko'p*).

Importni moliyalashtirish manbalari tarkibida ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag'lar (*konvertatsiya*) ulushi **66,3 foizni** (*2025-yilning mos davrida – 60,7 foiz*), xorijiy valyutadagi o'z mablag'lari hisobiga importni moliyalashtirish ulushi **22 foizni** tashkil etdi (*2025-yilning mos davrida – 25,6 foiz*).


3-rasm. Importni moliyalashtirish manbalari, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Sotib olingan xorijiy valyutaning asosiy qismi – **47 foizi** ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, tovarlar va xomashyo importi, **29 foizi** – xorijiy valyutadagi kreditlarni so'ndirish, **20 foizi** – xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, **1 foizi** – xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va qolgan **3 foizi** – boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan.

4-rasm. Sotib olingan chet el valyutasi maqsadlari tarkibi, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Jismoniy shaxslarning banklar bilan amalga oshirgan operatsiyalarining ijobiy saldosini ichki valyuta bozorida qo'shimcha taklif manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Aholi tomonidan tijorat banklariga **6,0 mlrd** dollar sotilib, ushbu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,5 barobarga** oshdi (2025-yil I chorakda – 4,1 mlrd dollar).


Shu bilan birga, jismoniy shaxslar tomonidan **3,2 mlrd** dollar sotib olinib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **31 foiz** o'sishni qayd etdi (2025-yil I chorakda – 2,4 mlrd dollar).

Umuman olganda, jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy valyuta taklifi va talabi o'rtasidagi ijobiy saldo **2,9 mlrd** dollarga teng bo'ldi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 barobar ko'p).

5-rasm. Aholining banklar bilan amalga oshirilgan operatsiyalari, mln dollarda



6-rasm. Pul o'tkazmalari orqali kelib tushgan valyuta mablag'lari, mln dollarda



Manba: Banklar ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari


Mazkur davrda aholining banklarga valyuta sotuvining asosiy manbai bo'lgan xalqaro pul o'tkazmalari orqali mamlakatimizga **3,8 mlrd** dollar miqdorida valyuta mablag'lari kelib tushdi (2025-yil mos davriga nisbatan 13 foiz yoki 433 mln dollarga ko'p).

Shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari orqali mamlakatimizdan **604 mln** dollar miqdorida valyuta mablag'lari chiqib ketgan bo'lib, 2025-yilning I choragiga nisbatan **39 mln** dollarga kamaydi.

Joriy yil boshidan Markaziy bank almashuv kursi 1,5 foizga pasayib, kunlik tebranuvchanlik darajasi ikki barobarga oshdi.

2026-yilning I choragi davomida milliy valyuta almashuv kursi dinamikasi ichki valyuta bozoridagi talab va taklif omillari hamda tashqi iqtisodiy sharoitlar ta'sirida shakllandi.

7-rasm. 2025-2026-yillar davomida almashuv kursi dinamikasi va tebranuvchanligi, so'mda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Umuman olganda, yuqori iqtisodiy faollik va importni moliyalashtirish ehtiyoji yuridik shaxslarda xorijiy valyutaga bo'lgan talabning sezilarli ortishi orqali valyuta kursi pasayishiga ta'sir etgan omillardan bo'ldi.

Joriy yilning I choragida ikki tomonlama kunlik tebranuvchanlik o'rtacha 0,2 foizni (*o'rtacha 29 so'm*) tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davrida ushbu ko'rsatgich 0,1 foizni (*o'rtacha 12 so'm*) tashkil etgan.